

M.XARKXAYMERNING “IDROKNING SO’NISHI” ASARI HAQIDA

Saydahmadova Maftuna Valixonovna

O‘zbekiston Milliy univerisiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Sotsiologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

Saydaxmadovamaftuna@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15346577>

Annotatsiya. Mazkur maqolada M.Xarkxyumerning “Idrokning so’nishi” asari falsafiy-nazariy tahlil asosida ko’rib chiqiladi. Asarda muallif insoniyat tafakkurining zamonaviy jamiyat sharoitida qanday o’zgarishga uchrashi, aql-idrokning texnologik va iqtisodiy jarayonlarga bo’ysunib borayotgani, ma’naviy qadriyatlarning so’nib borishi haqidagi g’oyalarni ilgari suradi. Maqolada bu g’oyalar ijtimoiy ong, tanqidiy tafakkur va madaniy tanazzul kontekstida yoritiladi. Shuningdek, Xarkxaymerning Frankfurt maktabi doirasidagi boshqa faylasuflar bilan ideaviy aloqalari ham tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Idrokning so’nishi, tanqidiy tafakkur, ijtimoiy ong, zamonaviy sivilizatsiya, aql va ong, madaniy tanazzul.

M.HARHEIMER’S WORK “FADING OF PERCEPTION”

Abstract. In this article, M.Harkhumer’s “Fading of Parception” is considered based on philosophical and theoretical analysis. In the work, the author puts forward ideas about how human thinking is changing in the conditions of modern society, intelligence is becoming subject to technological and economic processes and spiritual values are fading away. The article highlights these ideas in the context of social consciousness, critical thinking and cultural decline. Harkheimer’s ideological connections with other philosophers within the Frankfurt school are also analyzed.

Key words: Fading of Parception, critical thinking, social consciousness, modern civilization mind and consciousness, cultural decline.

Zamonaviy jamiyatda tafakkur va idrokning ahamiyati tobora pasayib borayotgani ijtimoiy nazariyotchilar e’tiborini tortgan muhim masalardan biridir. Bu borada Frankfurt maktabining yetakchi vakillaridan biri bo’lgan Maks Xarkxeymerning “idrokning so’nishi” asari alohida o’rinni egallaydi. Asard muallif zamonaviy jamiyatda talqin etilayotgani tanqid qiladi. Harkxeymer inson aqlining tanqidiy va refleksiv xususiyatlari so’nib borayotganini, bu esa jamiyatdagi ijtimoiy nohaqlik va ongni boshqarish uslublarini kuchaytirayotganini ta’kidlaydi. Ushbu maqola Harkxeymerning asaridagi asosiy g’oyalarni tahlil qilish, ularning

zamonaviy ijtimoiy hayotga ta'sirini ko'rsatish va idrokning susayishi qanday ijtimoiy oqibatlarga olib kelishini yoritishga qaratilgan.¹

Harkxeymerning fikricha, inson aqli o'zining asl mohiyatidan ya'ni ma'naviy, tanqidiy va axloqiy yo'nalganlikdan chekinib, faqatgina vositaviy vazifalarni bajaradigan, ya'ni maqsadga erishish vositasi sifatidagi rolga tushib qolgan. Bu holat "instrumental aql" deb ataladi. Aql endi haqiqatni izlash, axloqiy qarorlar qabul qilish emas, balki faqat samaradorlik, nazorat va boshqaruv uchun xizmat qiladi.²

Har bir inson hayoti davomida o'z aql idrokini rivojlantirib turishi zarur. Aqlsiz, idroksiz inson obro'-mansab va maqsadlariga erisha olmaydi.

Maks Horkxeymerning "Idrokning so'nishi" asari 1967 yilda chop etilgan. Ushbu asarda Horkxeymer Instrumental aql ya'ni vositaviy aql tushunchasini tanqidiy tahlil qiladi. Muallifga ko'ra, inson aqli tarix davomida o'zining ma'naviy axloqiy vazifalaridan chekinib, faqat amaliy, nazorat qiluvchi, texnologikvosita sifatida ishlatiladigan holatgake kelgan. Bunday aql jamiyatda erkinlikni emas, balki Konformizm, avtoritarizm va boshqaruvni kuchaytiradi.

Instrumental aqlning mohiyati.

Instrumental aqlni quyidagi asosiy jihatlar orqali tushunishimiz mumkin:

1. *Vosita-maqsad munosabatlari:* Aql endi "nima uchun?" savolini emas, faqat "qanday qilib?" degan savolni beradi. Bu esa maqsadlarni tanlashdagi axloqiy mezonlarni yo'qqa chiqaradi.

2. *Inson subyektivligining pasayishi:* Aql hayotni anglash vositasi emas, balki uni nazorat qilish usuliga aylangan. Natijada inson o'z faoliyatining ma'nosi va axloqiy oqibatlari haqida o'ylamay qo'yadi.

3. *Madaniyat va mafkura orqali idrokni boshqarish:* Ommaviy madaniyat va sanoatlashtirilgan tafakkur shakillari aqlning ijtimoiy tanqidiy ro'lini zaiflashtiradi. Fikrlovchi odam iste'molchiga, fikr emas mahsulotga aylanadi.

Tarixiy va ijtimoiy asoslar.

Harkxeymer bu tahlilni Yevropa jamiyatining, ayniqsa Germaniyada fashizmning kuchayishi, sanoat jamiyatining texnologiyalariga to'liq suyanib qolishi va inson erkinligining cheklanishi fonida o'tkazadi. U instrumental aqlning iltizlarini Yangi davr falsafasi Dekart, Bekon, Kant va Hegel g'oyalari orqali tahlil qiladi, biroq bu faylasuflarning g'oyalarini tanqidiy ruda qayta ko'rib chiqadi.³

¹ Horkheimer, M. (1967). Zur Kritik der instrumentellen Vernunft. Frankfurt am Main: Fischer Verlag

² Abdurashidov, H. (2021). Tanqidiy nazariya va ijtimoiy ong.

³ Keller, D. Critical Theory, Marxism and Modernity. - Polity Press, 1989

Idrok turlari:

Obyektiv idrok. Inson hayotini boshqaradigan, axloqiy mezonlar va insoniy qadriyatlarga asoslangan tafakkur shakli. Bu idrok turida inson haqida, adolat, ezgulik kabi mavhum tushunchalarni anglashga va ularga amal qilishga intoladi.

Intrumental idrok. Bu esa amaliy natijalarni ko'zlaydi, ya'ni foyda, samaradorlik, texnologik yutuq, iqtisodiy manfaat kabimezonlarga asoslanadi. Harkxeymer fikriga ko'ra zamonaviy jamiyat aynan mana shi instrumental idrokga to'liq bo'ysungan, natijda inson axloqiy tanlov qilish qobiliyatidan ayriladi⁴

Xulosa: Maks Horkxeymerning "Idrokning so'nishi" asari chuqur ijtimoiy, madaniy va falsafiy muammolarni yoritadi. U tafakkurning mohiyatini yo'qotishi, idrokning faqargina texnik vositaga aylanishi insoniyat uchun jiddiy havf ekanligini ogohlantiradi. Asar o'quvchini tanqidiy fikrlashga, axloqiy mas'uliyatni his qilishga va insoniylik mezonlarini tiklashga chorlaydi. Uning fikrlash doirasini kengaytiradi, shu bilan bir qatorda talabchanligi ham oshadi.⁵

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Gulnoz J. Sotsiologiya tarixi.–T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.–466 b.
2. Jiyanmuratova G. Sh. Huquq sotsiologiyasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Oltin qalam" nashriyoti, 2024. – 180 b. // https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA AJ&sortby=pubdate&citation_for_view=fdboTmYAAAAAJ:QD3KBmkZPeQC
3. Jiyanmuratova G. Sh. Zamonaviy sotsiologik nazariyalar va maktablar: Darslik. – Toshkent: "Oltin qalam" nashriyoti, 2024. – 340 b. // https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA AJ&sortby=pubdate&citation_for_view=fdboTmYAAAAAJ:jL-93Qbq4QoC
4. Bekmurodov, M.B.; Raximova, N.X.; Jiyanmuratova, G.Sh.; Nurqulov, B.G'. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2025. – 160 b. // https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA AJ&sortby=pubdate&citation_for_view=fdboTmYAAAAAJ:48xauSegjOkC
5. Sh J. G. Gofurov O. Ul. Mehnat bozori. Bandlik va ishsizlik muammolari. Risola.– Toshkent: O 'zMU, 2023.–117 b.

⁴ Jay, M. The Dialectical Imagination. -University of California Press, 1989

⁵ Tp'xtaxo'jayev, S. "Tanqidiy tafakkur va zamonaviy jamiyat"

6. Gulnoz J., Bunyod N. YOSHLAR IJTIMOIIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH-USTUVOR VAZIFA //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.
7. Sherbutayevna J. G. et al. YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH-DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFASI //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.
8. Джиянмуратова Г. YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2024. – №. SI-1.
9. Sherbutayevna J. G. et al. ABSENTEIZM IJTIMOIIY HODISA SIFATIDA //Tafakkur manzili. – 2023. – T. 2. – С. 4-10.
10. Жиянмуратова Г. Ш. Ёш сайловчи электорал хулқ-атвориға таъсир кўрсатувчи омиллар/ЎзМУ хабарлари.–Тошкент, 2022. – № 1/11/1.–Б. 86-89./<https://scholar.google.com/citations>.
11. Джиянмуратова Г. Ш. ELEKTORAL XULQ-ATVORGA RATSIONAL-INSTRUMENTAL YONDASHUVNING PAYDO BO ‘LISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2022. – Т. 5. – №. 3. // https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA-AJ&cstart=20&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=fdboTmYAAAAJ:HtEfBTGE9r8C
12. Жиянмуратова Г. Ўзбекистон ёшларининг электорал маданияти. Монография.– Тошкент, 2021.–122 б.
13. Sh J. G. The Issue Of Youth Trust In Political Institutions In Sociology //Sotsiologiya va huquq/Sociology and law. – 2024. – T. 2. – №. 3/1. – С. 1.
14. Jiyanmuratova G. S. ZAMONAVIY YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA ISHONCHI TADQIQOTLARI: XORIJ TAJRIBASI //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – С. 190-197.